

Yashil IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

2
0
2
4



No 8

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati



74-91 xalqaro daraja
ISSN: 2992-8982



Yashil

IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

Bosh muharrir o'rinbosari:
Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:
Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Elektron nashr. 283 sahifa.

E'lon qilishga 2024-yil 7-avgustda ruxsat etildi.

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, t.f.d., prof., O'zR Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vaziri
Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich, i.f.d., O'zR Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vaziri o'rinbosari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, i.f.d., prof., O'zR Oliy Majlisi qonunchilik palatasi deputati
Axmedov Sayfullo Normatovich, i.f.n., professor, MIM akademiyasi rektori
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, i.f.d., prof., TDIU Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektori
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, i.f.d., prof., Navoiy davlat pedagogika instituti rektori
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, p.f.f.d., (PhD), Buxoro muhandislik-texnologiya instituti rektori
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, i.f.d., prof., TDIU Hududiy ta'lim muassasalari va markazlar bo'yicha prorektor v.b.
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, i.f.d., TDIUprofessori
Samadov Asqarjon Nishonovich, i.f.n., TDIU professori
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, t.f.d., Rossiya xalqlar do'stligi universiteti professori
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, i.f.d., prof., Xalqaro "Nordik" universiteti rektori
Axmedov Ikrom Akramovich, i.f.d., TSUE professori
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo'ja o'g'li, i.f.f.d., TDIU dotsenti
Utayev Uktam Choriyevich, O'zR Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rinbosari
Ochilov Farxod, O'zR Bosh prokuraturasi IJQKD boshlig'i
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, i.f.d., TDIU professori
Musayeva Shoirazimovna, SamDu IS instituti professori
Cham Tat Huei, (PhD) USCI universiteti professori, Malayziya
Axmedov Javohir Jamolovich, i.f.f.d.,(PhD) "El-yurt umidi" jamg'armasi ijrochi direktori o'rinbosari
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, t.f.f.d.,(PhD) TAQU katta o'qituvchisi
Djudi Smetana, p.f.n., Pitsburg davlat universiteti dosenti, Pittsburgh, Kansas, AQSH
Krissi Lyuis, p.f.n., Pitsburg davlat universiteti dosenti, Pittsburgh, Kansas, AQSH
Ali Konak (Али Кўнак), i.f.d., prof., Karabuk universiteti dosenti, Turkiya
Glazova Marina Viktorovna, i.f.n., "LUKOIL-Energoservis" Kompaniyasi iqtisodchisi, Moskva.
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, i.f.f.d., (PhD) TDIU dotsenti
Sevil Piriyeva Karaman, PhD, Turkiya Anqara universiteti doktoranti
Mirzaliyev Sanjar Maxamatjon o'g'li, TDIU mustaqil tadqiqotchisi

Yashil

IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Oqil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan

Abdurakhmanov Kalandar Khodjaevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan

Rae Kwon Chung, honorary professor of TSUE, Nobel laureate, South Korea,

Osman Mesten, member of the Turkish Parliament, head of the Turkey-Uzbekistan Friendship Society

Sharipov Kongratbay Avezimbetovich, DSc, Prof., Minister of Higher Education, Science and Innovation of the Republic of Uzbekistan

Buzrukkhanov Sarvarkhan Munavvarkhanovich, DSc, Deputy Minister of Higher Education, Science and Innovation of the Republic of Uzbekistan

Akhmedov Durbek Kudratillayevich, DSc, Prof., Deputy of the Legislative Chamber of the Oliy Majlis of the Republic of Uzbekistan

Akhmedov Sayfullo Normatovich CSc, Prof., Rector of Academy of Labor and Social Relations

Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, DSc, Prof., TSUE Vice-Rector for Scientific Affairs and Innovation

Kalonov Mukhiddin Bakhritdinovich, DSc, Prof., Rector of the Navoi State Pedagogical Institute

Siddikova Sadokat Ghaforovna, PhD, Rector of the Bukhara Institute of Engineering and Technology

Khudoykulov Sadirdin Karimovich, DSc, Prof., acting Vice-rector for regional educational institutions and centers of TSUE

Yuldashev Mutallib Ibragimovich, DSc, Prof., of TSUE

Samadov Askarjon Nishonovich, CSc, Prof., of TSUE

Slizovsky Dimitriy Yegorovich, DSc, Prof., of the People's Friendship University of Russia

Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, DSc, Prof., Rector of International "Nordic" University

Akhmedov Ikrom Akramovich, DSc, Prof., of TSUE

Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo'ja ugli, DSc, Prof., of TSUE

Utayev Uktam Choriyevich, Deputy Head of the DGPO of the Republic of Uzbekistan

Ochilov Farkhod, Head of the DCECGPO of the Republic of Uzbekistan

Eshtayev Alisher Abduganievich, DSc, Prof., of TSUE

Shoira Azimovna Musaeva, professor of SamDu IS Institute

Cham Tat Huei, PhD, professor at USCI University, Malaysia

Akhmedov Javokhir Jamolovich, PhD, deputy of executive director of the "El-yurt umidi" fund

Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, PhD, Senior Lecturer at Tashkent University of Architecture and Construction

Judy Smetana CSc, Associate Professor, Pittsburgh State University, Pittsburgh, Kansas, USA

Chrissy Lewis CSc, Associate Professor, Pittsburgh State University, Pittsburgh, Kansas, USA

Ali Konak DSc, Prof., Associate Professor of Karabuk University, Turkey

Glazova Marina Viktorovna, CSc, economist at LUKOIL-Energoservis Company, Moscow.

Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, associate professor of TSUE

Sevil Piriyeva Karaman, PhD, doctoral student at Ankara University, Turkey

Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, independent researcher of TSUE

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, t.f.d., profesor
Aliyev Bekdavlat Aliyevich, f.f.d., TDIU professori
Isakov Janabay Yakubbayevich, i.f.d., TDIU professori
Xalikov Suyun Ravshanovich, i. f. n., TDAU dotsenti
Rustamov Ilhomiddin, f.f.n., Farg'ona davlat universiteti dotsenti
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, i.f.d, TDIU dotsenti
Kamilova Iroda Xusniddinovna, i.f.f.d., TDIU dotsenti
G'afurov Doniyor Orifovich, p.f.f.d., (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, i.f.f.d. (PhD), Alfraganus universiteti dotsenti
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, i.f.f.d, TDIU dotsenti
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, i.f.d., TMI dotsenti
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, TDIU katta o'qituvchisi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, TDIU mustaqil tadqiqotchisi

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi, O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi 336/3-
sonli qarori bilan ro'yxatdan
o'tkazilgan.



MUNDARIJA

Benchmarking asosida oliy ta'lim muassasalarining raqobatbardoshlik xususiyatini oshirish.....	16
Qo'ng'irotboy Avezimbetovich Sharipov, Zaynutdinova Umida Djalolovna	
Mehnat resurslarini samarali boshqarish orqali ish bilan bandlikni ta'minlash	20
Shakarov Zafar Gafforovich	
Трансформация человеческого капитала в условиях цифровизации и внедрения искусственного интеллекта в банковскую экосистему	24
С.С. Исмаилов	
“Kreativ iqtisodiyot” va “kreativ industriya”: mohiyati, nazariy jihatlarining tahlili	32
Dusmuxamedov Oybek Suratbekovich	
Muammoli kreditlar va ularni bartaraf etish yo'llari.....	37
Tojiyev Sardor Dilmurod o'g'li	
Don mahsulotlari tarmog'ida mavjud kamchiliklar va ularning yechimlari	41
Sh.B. Donayev	
Eksportni rivojlantirish iqtisodiy o'sishning asosiy omillaridan biridir	45
Xursandov Komiljon Maxmatkulovich	
Yirik soliq to'lovchilar bo'yicha soliq ma'muriyatchiligini tashkil etish.....	49
Idirisov Alisher Otajonovich	
Institutsional investorlar faoliyatini tashkil etishning konseptual jihatlarini.....	53
Sultanov Maxmud Axmedovich	
Poverty in developing countries: new problems and solutions.....	57
Amirdjanova Sitara Sunnat kizi	
Факторы, влияющие на успешное функционирование скандинавской модели развития экономики	61
Вохидова Мехри Хасановна	
Анализ зарубежного опыта методологии оценки финансового потенциала развитых стран	69
Буранова Лола Вахобовна	
Mamlakatimizda islom moliyaviy xizmatlarini joriy etishning zarurligi.....	78
Babamatov Tolib Hakimovich	
Davlat-xususiy sheriklik loyihalarining tashkiliy-huquqiy mexanizmlari	83
S.A.Karabayev	
O'zbekiston tijorat banklarida valyuta operatsiyalarini amalga oshirish yo'llari	90
Yusupov Aziz Shuxratovich	
Sanoatda raqamli transformatsiyaning shakllanishi va rivojlanishi	95
Gulbayeva Feruza Islamovna	
Oliy ta'lim muassasalarining mamlakat iqtisodiy rivojlanishiga ta'siri.....	102
Sherov Alisher Bakberganovich	
Maxsus kiyimlar tikishda foydalaniladigan gazlamalar tahlili	107
Sayidova Maftuna Hamroqul qizi	
O'zbekistonda elektron bank xizmatlarini o'zgartirishda raqamli texnologiyalardan foydalanish	111
Umarova Malika Baxtiyarovna	
Оценка влияния налоговой системы на финансовое состояние организаций.....	116
Умида Юлдашева	
Теоретическое обоснование интернет-маркетинга в социальных сетях.....	120
Арипходжаев Саидамир Фузулиддинович	




Sport tashkilotining marketing strategiyasini ishlab chiqish.....	127
Ismoilov Sherzod Dilshodovich	
Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishda klaster tizimini joriy qilish jarayonlari.....	132
Ziyadullayev G'ayrat Umidulla o'g'li	
Hududlar soliq salohiyatini oshirishda soliq risklarini boshqarishning zamonaviy tendensiyalari	138
Sharipov Narzullo G'ulomovich	
O'zbekistonning xalqaro bozordagi faoliyatini kengaytirishda marketing strategiyalaridan foydalanish samaradorligi.....	144
Shadieva Madina Djaloliddin qizi	
Xususiy tadbirkorlik va kichik biznes subyektlarining rivojlanish tendensiyalari.....	148
Jumanazarova Z.K.	
Xalqaro savdning O'zbekiston iqtisodiyotiga ta'siri	154
Rashidov Bekzod Ulug'bek o'g'li, Isayev Laziz Baxtiyorovich	
Oliygochlarni optimallashtirishda sinergiya samarasiga erishish yo'llari	158
Adizov Sanjar Rashidovich	
Iqtisodiyotni raqamlashtirish sharoitida bank tizimining barqarorligini ta'minlash asosida aholi kambag'allik darajasini qisqartirish	165
Xoliyorov Murod Qahramon o'g'li, Xoliyova Shoxista Qahramon qizi	
Концептуальная основа маркетинга в социальных сетях в туризме.....	174
Касимова Зилола Гуламиддиновна	
O'zbekistonda don mahsulotlari klasterlarida ishlab chiqarish va xo'jalik faoliyatini rivojlantirish	182
Alimov G'ayratjon Abduraxmon o'g'li	
Актуальные проблемы и пути решения приватизации государственного имущества в узбекистане	186
Шахзод Сайдуллаев	
Ttijorat bank daromadlaridagi risklarni baholash va boshqarishni takomillashtirish	192
Ahmedov Komron Muhammadaliyevich	
Sanoat korxonalarini iqtisodiy salohiyatini oshirishga ta'sir etuvchi omillar tahlili.....	196
Quyjanov Xurshid Abdullayevich	
Tashkilotning moliyaviy natijalarini hisobga olishda auditni takomillashtirish masalalari	200
Bakayev Xurshid Maxmudovich	
Yirik soliq to'lovchilar bo'yicha hududlararo davlat soliq inspeksiyasi o'rni va ahamiyati	206
Normurzaev Umid Xolmurzaevich	
Анализ международного опыта в сфере тепличного овощеводства	214
Нурутдинова Зухра Алишеровна	
Hududda turizm xizmatlarini rivojlantirishda xorijiy mamlakatlar tajribalarining mohiyati	220
Madaminova Sanobar Askarovna	
Hududning iqtisodiy o'sishini "yashil" iqtisodiyot asosida shakllantirishning nazariy asoslari	226
Shomirzayev Abdug'affor Abdujabbor o'g'li	
Davlat tibbiy sug'urta jamg'armasi faoliyati tahlili.....	230
Umurzakova Mo'tabarxon Nodir qizi	
Qurilish materiallarini ishlab chiqarish korxonalarining boshqarish tizimini takomillashtirish.....	234
Uzakova Umida Ruziyevna	
O'zbekistonda turistik majmualarni boshqarishning zamonaviy konsepsiyalari va yondashuvlarining metodologik jihatlarini.....	241
Xomidov Qaxxorali Qurbonali o'g'li	
Aktiv va reaktiv quvvatlari tushunchasi va ularni soliqqa tortishdagi mavjud muammolar	247
Boykabilov Bahodir Mustafayevich	



Kichik sanoat zonalari korxona va mahsulotlar raqobatbardoshligini baholashga uslubiy yondashuv	251
Ozoda Batirovna Sakiyeva	
Investitsion jozibadorlikni baholashning uslubiy jihatlari	255
N.N.Zikrillayev	
Hududlarda turizm tarmoqlari infratuzilmasi va uni rivojlantirishni boshqarishning metodologik jihatlari	263
Saidova Dilfuza Abdufattohovna	
The connection of legal protection of geographical indications and state's economic growth	268
Almosova Shahnoza Sobirovna	
Kichik biznesning integratsiyalashuv mexanizmlarini shakllantirish	273
Israilov Rustam Ibragimovich	
Aksiyadorlik jamiyatlarida biznes jarayonlarni samarali boshqarishning nazariy asoslari va o'ziga xos xususiyatlari	277
D.D. Suvanova	



O'ZBEKISONDA
TURISTIK MAJMUALARNI
BOSHQARISHNING ZAMONAVIY
KONSEPSIYALARI VA
YONDASHUVLARINING
METODOLOGIK JIHATLARI



УДК: 338.48:658.01(575.1)
ORCID: 0000-0002-5768-6010

Xomidov Qaxxorali Qurbonali o'g'li

Farg'ona davlat universiteti
Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Annotatsiya: Ushbu maqolada turistik majmua mazmunini ifodalovchi zamonaviy konsepsiyalar va yondashuvlar, turistik majmualar tasnifi, turistlarning iste'mol xulq-atvorini anglashning konseptual modeli hamda turistik majmualarda turmahsulotni yaratish va sotish jarayoni ishtirokchilarining o'zaro aloqalari tahlili amalga oshirilgan.

Kalit so'zlar: turistik majmua, konseptual model, turmahsulot, boshqaruv yondashuvlari, turistik majmualarni tasniflash, iste'mol xulq-atvori.

Abstract: In this article, an analysis of modern concepts and approaches that represent the content of the tourist complex, the classification of tourist complexes, a conceptual model of understanding the consumer behavior of tourists and the interaction of participants in the process of creating and selling tourmahsulot in tourist complexes was carried out.

Key words: Tourist complex, conceptual model, tourism, management approaches, classification of tourist complexes, consumer behavior.

Аннотация: В данной статье был проведен анализ современных концепций и подходов, представляющих содержание туристического комплекса, классификация туристических комплексов, концептуальная модель понимания потребительского поведения туристов и взаимодействия участников процесса создания и продажи турмаксудот в туристических комплексах.

Ключевые слова: Туристский комплекс, концептуальная модель, туризм, подходы к управлению, классификация туристических комплексов, поведение потребителей.

KIRISH

Bugungi kunda turizm sohasi jahon iqtisodiyotining yetakchi tarmoqlaridan biriga aylandi. Shu bois O'zbekistonda sayyohlik sohasini modernizatsiyalash, sohani barqaror rivojlantirish uchun me'yoriy-huquqiy hujjatlar bazasini rivojlantirish va takomillashtirishga, xorijiy mehmonlarga xalqaro standartlarga muvofiq xizmatlar ko'rsatishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Bundan asosiy maqsad, O'zbekistonda turizm sohasini jadal rivojlantirish, jumladan, tarixiy va madaniy merosga hurmat, xalqaro standartlarga to'liq javob beradigan infratuzilmani yaratish, xalqaro munosabatlarni mustahkamlash, davlatimizni eng ko'p sayyohlar tashrif buyuradigan mamlakatlardan biriga aylantirishdan iborat.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Turistik majmualarda xizmatlar sifati va samaradorlikni boshqarishning tegishli mexanizmlarini shakllantirish va ularni baholash hamda amaliyotda qo'llash yuzasidan bir qator farmon, qaror, xalqaro hamda O'zbekiston Respublikasining davlat standartlari qabul qilingan, shuningdek, soha mutaxassislari va olimlar tomonidan tadqiq qilinib, tegishli ilmiy-nazariy xulosalar shakllantirilgan, ilmiy takliflar va amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.



Iqtisodchi olim D.K. Ismayevning yondashuviga ko'ra turizm biznesida marketing boshqaruvi, mehmonxona xizmatlarida boshqaruv sifati mexanizmlarini shakllantirish va ularni baholash samaradorligini ilgari surgan[1].

B.X.Turayevning fikricha, O'zbekiston Respublikasining turistik potensialidan effektiv foydalanishda turistik oqimni faollik darajasi, mehmonxona ishi, raqobatbardoshlik, mijozlarga sifatli xizmat ko'rsatish masalalari uyg'unligi yuzasidan takliflar ishlab chiqilgan[2].

Shu bilan birga, Kim Ok Kyung o'z tadqiqotlarida turizm xizmatlarida marketing boshqaruvi mexanizmlarini shakllantirish va ularni baholash hamda amaliyotda qo'llashni tahlil qilgan[3].

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Hozirgi sharoitda milliy iqtisodiyotimizni o'sishini ta'minlash uchun turistik majmualar faoliyatining boshqaruv, intellektual, raqamli, innovatsion va tadbirkorlik salohiyatlarini baholash metodikasini ishlab chiqish muhim hisoblanadi. Hususan, turistik majmualarda boshqaruv samaradorlikni oshirish va raqobatbardoshlikni ta'minlashda aynan fan, ta'lim, innovatsiyalar va axborot kommunikatsiya tizimlari muhim ahamiyat kasb etadi.

TAHLIL VA NATIJALAR MUHOKAMASI

Turistik majmua mazmunini ifodalovchi zamonaviy konsepsiya esa tushunchani ikki tomonlama yondashuv asosida tushuntiradi:

1. Turistik majmuaga tashrif buyuruvchi mijoz nuqtayi nazaridan. Bunda majmua joyi odamlar ta'tilni o'tkazadigan "joy" emas, balki "hudud" sifatida belgilanib, ta'tilni o'tkazish uchun hudud doirasidagi muqobil joyni tanlash yoki belgilash mumkin. Ushbu konsepsiyani o'ziga xos elementlari qatoriga hudud (shahar, yovvoyi tabiat, sohil va boshqalar), tanlov (tanlovga ta'sir etuvchi shaxsiy motiv, muqobil joy yoki faoliyat) va ta'sir (ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy, ekologik va boshqalar) kabi elementlar kiritiladi.

2. Turistik majmuada faoliyat olib boruvchi tadbirkor nuqtayi nazaridan. Bunda turistik majmua turistik talabni boshqarish va uning majmuaga ta'sirini ifodalovchi manzil sifatida qaraladi. "Turistik majmua" ning kengaytirilgan mazmuni talabni boshqarishni nazarda tutuvchi "boshqaruv" hamda turizmni rivojlantirish uchun maqsadlarning qo'yilishi, rejalashtirish va zonalashtirishni o'z ichiga oluvchi ta'sirni boshqarish kabi tushunchalarning kiritilishi bilan tushuntiriladi.

Har bir turistik majmua quyidagi guruhlariga umumlashtirish mumkin bo'lgan alohida va o'ziga xos xususiyatlarga ega:

1. Majmualar resurs, turistik xizmatlar va infratuzilma, foydalanish imkoniyati, inson resurslari va imij kabi komponentlardan tashkil topadi.

2. Xar bir turistik majmualarning o'ziga xos bo'lgan madaniy qiymati mavjud.

3. Turistik majmuada turmahsulotni yaratish va unig iste'moli bir vaqtning o'zida amalga oshadi.

4. Turistik majmuada mavjud qulayliklardan nafaqat turistlar, balki mahalliy aholi va majmualardagi ishlovchilar ham foydalanishadi.

5. Turistik majmualardagi jarayonlar turli elementlarning bir-birini o'zaro to'ldirishi, turistik xizmatlarni paketlashtirish va turmahsulotning kompleksligi orqali amalga oshiriladi.

Turistik majmualarni turistik tizimning bir bo'lagi sifatida turlarga ajratish muhim hisoblanadi. Ushbu obyektning tasniflanishi tushunchaning kengroq va aniqroq tushunilishiga yordam beradi, shu bilan birga, undan foydalanish, rejalashtirish va boshqarish qarorlarini qabul qilish aniqligini ta'minlaydi.

Bugungi kunda turistik majmualarni tasniflashga nisbatan bir qator yondashuvlar mavjud bo'lib, ushbu tasniflar majmualarning alohida atributlari yoki maxsus belgilarini hisobga olgan holda shakllangan.

Taniqli marketolog F. Kotler tomonidan majmualar makro va mikromajmualarga ajratiladi. Uning fikriga ko'ra, makromajmualar yirik turistik hududlar bo'lib, o'z ichiga minglab majmualarni qamrab olishi mumkin. Mikromajmualar esa kichik hududdagi alohida majmualar hisoblanadi [4].

O'xshash tasniflarga tayangan holda Krishan Karma tomonidan turistik majmualarni to'rtta guruhga ajratiluvchi tasnif bo'yicha o'rganish tavsiya etiladi.

1. Juda keng tanlov imkoniyatini beruvchi diqqatga sazovor joylarga hamda biznes muammolarini hal etish imkoniyatiga ega yirik poytaxtlar yoki unga tenglashtirilgan shaharlar.

2. Turizmni maqsadli rivojlantirish markazlari.

3. Zaruriy infratuzilma tizimlari yetarli darajada to'plangan turistik markazlar.

4. Turistlar uchun maxsus yaratilgan markazlar.

Yuqoridagilar bilan birga, olib borilgan tadqiqotlar asosida, turistik majmualarni birlamchi va ikkilamchi darajali majmualarga ajratish ham maqsadga muvofiq hisoblanadi. Birlamchi turistik majmualar turistlar o'ziga jalb etuvchi va turistlar orasida trendda bo'lgan majmualar hisoblansa, ikkilamchi majmualar birlamchi majmuaga borish yo'lidagi zaruriy infratuzilmaga ega bo'lgan majmualar hisoblanadi va unda turistlar ko'pi bilan 1-2 kun bo'lishadi, xolos.



Turistik majmualarni tipologiyaga ajratish, tasniflash borasidagi tadqiqotlar ichida marketolog S. Xadsonning tasnifi alohida e'tiborni tortadi (1-jadval).

1- jadval. Turistik majmualar tasnifi

Majmualar tiplari	Mazmuni
Asosiy xalqaro majmualar	Ommaviy xalqaro turizm uchun shakllangan majmualar (Parij, London, Nyu-York)
Klassik majmualar	Turistlarning uzoqroq vaqt davomida bo'lishlarini yordam beruvchi tabiiy, madaniy yoki tarixiy resurslardan tashkil topgan jalb etuvchi majmualar.
Inson tomonidan yaratilgan kurort majmualar	Inson tomonidan mavjud turistik resurs komponenti asosida yaratilgan va turistlar uning hududini kamdan-kam hollarda tark etuvchi majmualar.
Tabiiy landshaftlar yoki yovvoyi tabiat parklari	Noyob flora va faunaga ega, yovvoyi tabiati bilan turistlarni jalb etuvchi majmualar.
Muqobil majmualar	Majmualarning nisbatan zamonaviy turi bo'lgan kruiz, tematik parklar, yirik savdo markazlari yoki taymsheer-kurortlar ko'rinishidagi majmualar
Biznes-turizm majmualari	Turistik majmualarni taklif etuvchilar tomonidan biznes-turistlar tashrifini imkon qadar uzaytirishga harakat qilinuvchi turistik majmualar (yuqori darajadagi imijga ega bo'lgan mehmonxona majmualari).
Ikkilamchi (tranzit) majmualar	Turistlar generatsiyasini amalga oshiruvchi hudud va birlamchi turistik majmua orasida joylashgan majmualar.
Qisqa muddat qolinuvchi majmualar	Milliy yoki xalqaro darajadagi jozibadorlikka ega bo'lgan turistik majmualar (Niagara, Viktoriya sharsharalari).
Bir kun qolinadigan majmualar	Asosan qo'shni hududlardan turistlarni qisqa muddat (1 kun)ga jalb qiluvchi turistik majmualar (portlar, aeroportlar, savdo markazlari va boshqalar)

Yuqorida ko'rib chiqilgan tasniflar turistik majmualarning mohiyatini aniqroq tushunish, shu bilan birga, ushbu tasnifdagi destinatsiyalarning xususiyatlarini aniq bilishga yordam beradi.

“Turistik majmua” tushunchasiga turli konseptual yondashuvlarni o'rganish asosida ushbu tushunchaning ko'p qirraligi va uning mazmunini qanday maqsadda foydalanilishidan kelib chiqqan holda belgilash lozimligi aniqlandi. Shu bilan birga, tadqiqot jarayonida “turistik majmua” tushunchasi quyidagi asosiy belgilarga ega bo'lgan mahsulot, hudud, iste'mol qiymatiga ega qadriyat sifatida talqin etilishi maqsadga muvofiqligi aniqlandi:


- aniq chegaraga ega turistik resurs;
- milliy, hududiy va mahalliy darajada aniq amalga oshirish mexanizmi mavjud bo'lgan yagona boshqaruv strategiyasiga ega tizim;
- ko'p bosqichli kompleks turistik mahsulot;
- turistlar, tadbirkorlar va mahalliy boshqaruv tuzilmalarining murakkab o'zaro munosabatlari natijasida foydalaniluvchi turistik resurs;
- faqatgina iste'mol qiymatiga ega bo'lmagan turistik tajribani shakllantiruvchi turistik mahsulot.

Turistik majmualarning shakllanishi yetarli darajadagi salohiyatga ega bo'lgan hududlardagi turistik resurslarning jamlanishi hamda ulardan foydalanish jarayoni bilan bog'liq holda yuzaga keladi. Turistik salohiyat umumiy holda ikki asosiy yo'nalishda farqlanadi.

Turistik majmualarning majmua toifasiga o'tkazilishi yuqorida ko'rsatib o'tilgan resurslarning ushbu turdagi ne'matlarga mavjud bo'lgan talab yoki ehtiyojini qondirish uchun iste'molchilarning ishtiroki mavjud bo'lgan holatdagina amalga oshadi. Boshqacha aytganda, turistik salohiyat elementlarining turistlar tomonidan iste'mol qilinishi bilan ushbu elementlar joylashgan hudud yoki obyekt turistik majmuaga aylanadi.



Turistik salohiyatdan foydalanish, o'z navbatida, turistlar yoki iste'molchilarning iste'mol xulq-atvoriga bog'liq holda yuzaga keladi. Turistik majmuadagi mavjud resurslar iste'moli orqali turistlarda shakllanuvchi qoniqish hissi mavjud salohiyatni tushunish, undan maksimal qoniqish hosil qilish ko'rinishidagi natija uchun atrof-muhit bilan munosabatlarni boshqarish orqali shakllanadi (1-rasm).




1-rasm. Turistlarning iste'mol xulq-atvorini anglashning konseptual modeli¹.

Turistlarning iste'mol xulq-atvori uning ushbu turmahsulotni iste'mol qilishi uchun yuzaga kelgan motivlar – madaniy, demografik, ijtimoiy aloqalar, shaxsiy munosabatlar, qadriyatlar, tajriba yoki aloqalardan dominat bo'lgan motivni tanlash asosida destinatsiyalardagi mavjud resurslar (jalb qiluvchi joylashuv, imkoniyatlar, infratuzilma, xizmat, boshqa turistlar, tashkiliy tuzilma)ni o'zlashtirish orqali yuzaga chiqadi.

Iste'molchi (turist) tomonidan tanlov asosida o'zidagi ijtimoiy, madaniy aloqalar, atrof-muhit bilan aloqalarni boshqarish asosida olinadigan qoniqish, lazzatlanish, qoniqmaslik, bilim, ko'nikmalarni rivojlantirish, salomatlik kabi natijalarni eng samarali darajaga yetkazishni ko'zlasa, turistik majmuadagi mijozlarni qabul qiluvchida esa daromad, bandlik, iqtisodiy rivojlanish, ijtimoiy-madaniy, ekologik samara olish hamda mavjud infratuzilmani yanada takomillashtirish kabi natijaga erishishni o'z oldiga maqsad qilib qo'yadi. Ushbu natijalar, o'z navbatida, ham iste'molchi turistning, ham mijozni qabul qiluvchi tomonning xulq-atvorini belgilab beradi.

Turistik majmualar tarkibidagi asosiy turistik resurslar (bilim olish, tadbirkorlik, davolash-sog'lomlashtirish, sport va boshqa yo'nalishdagi) infratuzilma tizimlari (joylashtirish, transport, ovqatlanish, dam olish va boshqalar) bilan turoperatorlar vositasida birikadi va turistik mahsulot shakllanadi. Turistik korxonalar (turoperatorlar va turistik agentliklar) turistik majmualardagi mavjud resurs salohiyatidan kelib chiqqan holda turistik mahsulotni shakllantiradi, uning harakatini ta'minlaydi hamda sotish jarayonini tashkil etadi (2-rsm).

1 Муаллиф тадқиқотлари асосида ишлаб чиқилган.



2-rasm. Turistik majmualarda turmahsulotni yaratish va sotish jarayoni ishtirokchilarining o'zaro aloqalari.



Turistik majmualarni boshqarishning asosiy subyekti turistik operator hisoblanadi, chunki u to'g'ridan to'g'ri turistik mahsulotni shakllantiradi, so'ngra uni turistik agentlik bilan birgalikda targ'ib qiladi va sotadi.

Turistik majmualardan foydalanishning asosiy xususiyati turistik resurslar asosida turizm xizmatlaridan foydalanuvchi mijozlarga xizmat ko'rsatish hisoblanib, bunda bir yoki bir necha turistik maqsadlarni amalga oshirish uchun mijozlar doimiy yashash joyidan destinatsiya joylashgan hududlarga harakatlanadilar.

Turistik majmualarning shakllanishi va rivojlanishi bilan turistik resurslar joylashgan majmuaning imiji shakllanadi hamda hududga turistlarning tashrfi darajasining ortishida katalizator vazifasini bajaradi.

Turistik majmualar mavjud resurs salohiyati bilan bog'liq holda o'z ichiga quyidagi maqsadlardagi faoliyatni qamrab oladi :

- dam olish zonalari va kurortlarda dam olish;
- davolash-sog'lomlashtirish bo'yicha dam olish;
- tarixiy-madaniy hamda tabiatning diqqatga sazovor joylariga ekskursiyalar va turlar uyushtirish;
- gastronomik turizm xizmatlaridan foydalanish;
- faol va ekstremal turistik xizmatlardan foydalanish;
- ziyorat turizmi xizmatlaridan foydalanish;
- ekologik turizm xizmatlaridan foydalanish;
- sport turizmi xizmatlaridan foydalanish;
- agroturizm xizmatlaridan foydalanish;
- tadbirkorlik turizmi va boshqa turdagi turistik xizmatlardan foydalanish.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Bugungi kunda jahonning turistik salohiyati yuqori bo'lgan mamlakatlarida majmualardagi resurslarning yo'nalishi va tarkibiy tuzilishi asosida majmualar salohiyatini yagona majmuaga birlashtirgan holda rivojlantirish orqali turistik majmualarni shakllantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Bu esa boshqa mamlakatlar bilan bir qatorda mamlakatimizning turistik salohiyatidan dastlab mamlakat ichidagi turizm majmualari shaklida foydalanilgan holda hududning turistik imiji shakllangandan so'ng xalqaro darajaga o'tish mumkinligini ko'rsatadi.

Turizm xizmatlari bozorida turistik majmualarni mavjud salohiyati va foydalanish imkoniyatidan kelib chiqib jadal rivojlanishi mavjud salohiyatni umumlashtirish asosida soha uchun qisqa muddatlarda yangi turistik obyektlarni shakllantirish va ushbu obyektlarni yangi darajaga olib chiqish imkonini kengaytiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Исмаев Д.К. Маркетинг и управление качеством гостиничных услуг. Учебное пособие для вузов и колледжей. –М.: 2000. – 96 с.
2. Тураев Б.Х. Туристический потенциал Республики Узбекистан и эффективность его использования // Иқтисодиёт ва таълим. –2008, № 4, 37-42 б.
3. Ким Ок Кюнг. Маркетинг туристических гостиничных услуг. Дисс. канд.экон. наук. –Т.: 1999. –162 с.12.
Homidov Kakhkhorali Kurbonali ugli. (2023). Objective need for the formation and sustainable development of tourist complexes in the regions: <https://doi.org>
4. Хомидов К. (2023). O'zbekistonda turistik majmualar faoliyatini boshqaruv samaradorligining oshirish yo'llari. Economics and Innovative Technologies, 11(3), 154-160.
5. Хомидов Х. (2023). Худудларда туристик мажмуалар фаолиятини шакллантириш ва тизимли бошқариш асосида худудлар туристик салоҳиятидан самарали фойдаланиш масалалари. "Milliy iqtisodiyotni isloh qilish va barqaror rivojlantirish istiqbollari" respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari to'plami., 412-415.
6. Хомидов Қ.Қ. (2023).Организационно-экономический механизм развития туристических комплексов. In Новые технологии в учебном процессе и производстве (pp. 370-372).

Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>

Yashil

IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Xondamir Ismoilov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2024. № 8

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: [@iqtisodiyot_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77)

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, [@iqtisodiyot_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77) telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.

